



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIMLARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR.....	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY.....	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	



O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Fayzullayev Farrux Sharofovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: O'zbekistonda bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi fiskal ahamiyati hamda ularning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda bojxona to'lovlarining budjet daromadlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar, bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishning fiskal samaradorlikka ta'siri yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida bojxona to'lovlarini undirish samaradorligini oshirish hamda davlat budjeti daromadlarini barqaror shakllantirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bojxona to'lovlari, davlat budjeti, fiskal siyosat, bojxona ma'muriyatchiligi, budjet daromadlari, raqamlashtirish, bojxona islohoti, fiskal samaradorlik.

Аннотация: В статье проанализированы фискальное значение таможенных платежей в формировании доходов Государственного бюджета Республики Узбекистан, а также тенденции их развития. Исследованы основные факторы, влияющие на поступления таможенных платежей в бюджет, раскрыто влияние совершенствования таможенного администрирования и внедрения цифровых технологий на повышение фискальной эффективности. На основе международного опыта разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности взимания таможенных платежей и обеспечение устойчивого формирования доходов государственного бюджета.

Ключевые слова: таможенные платежи, государственный бюджет, фискальная политика, таможенное администрирование, доходы бюджета, цифровизация, таможенная реформа, фискальная эффективность.

Abstract: This article analyzes the fiscal importance of customs payments in the formation of the State Budget revenues of Uzbekistan and examines their development trends. The study investigates the main factors affecting customs revenue collection, highlighting the impact of improving customs administration and introducing digital technologies on fiscal efficiency. Based on international experience, practical recommendations are proposed to enhance the efficiency of customs payment collection and ensure the sustainable formation of state budget revenues.

Keywords: customs payments, state budget, fiscal policy, customs administration, budget revenues, digitalization, customs reform, fiscal efficiency.

KIRISH

Globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo hajmlarining kengayishi va tashqi iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi sharoitida bojxona to'lovlari davlat moliyasini shakllantirishning muhim fiskal manbalaridan biri hisoblanadi. Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Jahon savdo tashkiloti (WTO) hamda Jahon bojxona tashkiloti (WCO) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda bojxona to'lovlari davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, xalqaro savdoda raqamlashtirish, elektron tijoratning kengayishi, bojxona qiymatini sun'iy pasaytirish, noto'g'ri tarif tasnifi va noqonuniy savdo oqimlarining ortishi bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.¹

¹ IMF, 2022; WTO, 2017; WTO, 2020; IMF, 2023



So'nggi yillarda bojxona to'lovlarining fiskal samaradorligini oshirish masalalari ko'plab xalqaro tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, WTO bojxona qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish, WCO risklarni boshqarish va post-bojxona auditini rivojlantirish, UNCTAD esa bojxona jarayonlarini ASYCUDA axborot tizimi asosida raqamlashtirish orqali budjet tushumlarini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslab bermoqda. Mazkur tadqiqotlarda bojxona ma'muriyatchiligini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish davlat budjeti daromadlarini barqaror oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.²

O'zbekistonda ham bojxona tizimini isloh qilish va davlat budjeti daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-122-son³ Farmoni, 2023-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkilotlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-76-son⁴ Farmoni, shuningdek, bojxona tizimini raqamlashtirish, "Yagona darcha" tizimini rivojlantirish, xavflarni boshqarish mexanizmlarini keng joriy etish hamda bojxona nazoratini soddalashtirishga qaratilgan qarorlar bojxona to'lovlarini undirish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida bojxona rasmiylashtiruv jarayonlari soddalashtirilmoqda, inson omili qisqartirilmoqda hamda budjet tushumlarini oshirish uchun qulay institutsional sharoit yaratilmoqda.

Shu bilan birga, bojxona to'lovlarini undirish samaradorligini oshirish, bojxona imtiyozlarining fiskal ta'sirini baholash, bojxona qiymatini aniqlashning shaffof mexanizmlarini takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalar asosida bojxona ma'muriyatchiligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolada O'zbekistonda bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi fiskal ahamiyati, ularning rivojlanish tendensiyalari hamda fiskal samaradorlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda bojxona to'lovlari, avvalo, davlat daromadlarini safarbar etish, milliy bozorni tartibga solish va tashqi savdo oqimlarini nazorat qilish vositasi sifatida talqin etiladi. T. Cantens, R. Ireland va G. Raballand bojxona ma'muriyatchiligini rivojlanayotgan davlatlarda uchta o'zaro bog'liq vazifa — fiskal tushumlarni ta'minlash, savdoni yengillashtirish va xavfsizlikni mustahkamlash doirasida baholaydilar. Ularning yondashuviga ko'ra, bojxona organlarining samaradorligi faqat undirilgan mablag'lar hajmi bilan emas, balki nazoratning aniqligi, rasmiylashtirish tezligi va tadbirkorlik xarajatlarining kamayishi bilan ham o'lchanishi lozim.⁵

G. Montagnat-Rentier bojxona daromadlarini qisqa muddatda oshirish masalasini tahlil qilib, asosiy zaxira boj stavkalarini mexanik ravishda ko'tarishda emas, balki deklaratsiyalarni risk asosida saralash, bojxona qiymatini tekshirish, qarzdorlikni undirish, imtiyozlarni nazorat qilish va post-bojxona auditini kuchaytirishda ekanini ta'kidlaydi. Mazkur qarash bojxona to'lovlarining fiskal natijadorligi tarif siyosati bilan bir qatorda ma'muriy jarayonlarning sifati va soliq to'lovchilar intizomiga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Y. Arvanitis bojxona islohotlarining uzoq yillar davomida asosan axborot tizimlarini joriy etish va protseduralarni soddalashtirish bilan cheklanib qolganini qayd etadi. Olimning fikricha, barqaror natijaga erishish uchun institutsional boshqaruv, xodimlar rag'batlantirilishi, korrupsiya xavfini kamaytirish, ma'lumotlar sifati va natijalarni baholash tizimi birgalikda takomillashtirilishi zarur. Ushbu fikr bojxona tushumlarining o'sishi faqat raqamlashtirishning o'zi bilan emas, balki raqamli tizimlarni samarali boshqaradigan institutsional muhit bilan ta'minlanishini anglatadi.⁶

A. A. Pérez Azcárraga, T. Matsudaira, G. Montagnat-Rentier va J. Clark-Suzuki zamonaviy bojxona ma'muriyatchiligini raqamli ma'lumotlar, risklarni boshqarish, idoralararo axborot almashinuvi va post-bojxona auditiga tayanuvchi yaxlit tizim sifatida ko'radilar. Ular bojxona organlari ko'plab mamlakatlarda QQS, aksiz va bojlarning sezilarli qismini yig'ishini, shu sababli bojxona nazoratidagi kamchiliklar davlat budjeti uchun bevosita yo'qotish keltirib chiqarishini asoslaydilar. Jahon savdo tashkilotining Bojxona qiymati to'g'risidagi bitimida import qilinadigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda bitim qiymati ustuvor usul

2 WTO, 1994; WTO, 2017; WCO, n.d.; UNCTAD, 2025

3 <https://lex.uz/docs/5998615>

4 <https://lex.uz/uz/docs/-6472528>

5 Cantens, T., Ireland, R., & Raballand, G. (eds.). (2013). Reform by Numbers: Measurement Applied to Customs and Tax Administrations in Developing Countries. Washington, DC: World Bank.

6 Arvanitis, Y. (2023). Customs Reform in Developing Countries – Time for a Rethink? Washington, DC: World Bank.



sifatida belgilangan. Savdoni yengillashtirish to'g'risidagi bitim esa yuqori xavfli operatsiyalarga nazorat resurslarini yo'naltirish, past xavfli tovarlarni tez chiqarish va post-bojxona auditini rivojlantirishni tavsiya qiladi. Bu yondashuv fiskal manfaatlar bilan qonuniy savdoni yengillashtirish o'rtasida muvozanat saqlash zarurligini ko'rsatadi.⁷

MDH mamlakatlari ilmiy adabiyotlarida bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlaridagi o'rni ko'proq fiskal xavfsizlik, tashqi savdoni tartibga solish va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish nuqtayi nazaridan o'rganilgan. S. M. Karanets bojxona to'lovlarini federal budjetning soliq va soliqsiz daromadlarini shakllantiruvchi muhim manba sifatida baholab, ularning ulushi tashqi savdo hajmi, valyuta kursi, import tarkibi va tarif siyosatiga bog'liqligini ta'kidlaydi.⁸ S. V. Pankova bojxona to'lovlarini bojxona organlari iqtisodiy faoliyatining alohida obyekti sifatida tahlil qiladi. Muallif yashirin iqtisodiyot, bojxona qiymatini pasaytirish va noto'g'ri deklaratsiyalash budjet tushumlarining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilishini ko'rsatib, tushumlarni ko'paytirishda tashkiliy-iqtisodiy nazorat choralarning ahamiyatini asoslaydi.⁹

K. A. Bulycheva bojxona bojlari davlatning moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ekanini qayd etadi. Uning yondashuvida bojxona to'lovlarining yuqori ulushi budjet barqarorligini qo'llab-quvvatlashi mumkin, biroq tashqi savdo kon'yunkturasi va importga qaramlik kuchli bo'lgan sharoitda bunday daromadlarning o'zgaruvchanligi fiskal xatarlarni ham yuzaga keltiradi.¹⁰

E. O. Zavyalova bojxona to'lovlari stavkalarini oshirish har doim ham budjet daromadlarini ko'paytirmasligini ta'kidlaydi. Boj stavkalari pasaytirilganda import hajmi, QQS va foyda solig'i bazasining kengayishi natijasida umumiy fiskal samara saqlanishi yoki ortishi mumkin. Bu fikr bojxona siyosatini faqat bevosita boj tushumlari emas, balki umumiy budjet multiplikativ ta'siri asosida baholash zarurligini ko'rsatadi.¹¹

O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida bojxona to'lovlari davlat budjeti daromadlarini shakllantirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va tashqi savdo jarayonlarini tartibga solishning muhim vositasi sifatida yoritiladi. A. Suyunov va N. Turayev bojxona ma'muriyatchiligini nazariy va amaliy jihatdan tizimlashtirib, bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lovlarning budjetdagi ulushi mamlakat tashqi savdo faolligi, bojxona qiymatini to'g'ri belgilash va ma'muriy nazorat samaradorligiga bog'liqligini ko'rsatadilar.¹² N. J. Sheraliev davlat budjeti daromadlarining shakllanish tendensiyalarini o'rganib, solikli va soliqsiz tushumlarning barqaror o'sishi makroiqtisodiy faollik, soliq ma'muriyatchiligi va raqamlashtirish darajasi bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Garchi tadqiqot umumiy budjet daromadlariga bag'ishlangan bo'lsa-da, uning xulosalari bojxona to'lovlarini ham umumiy fiskal tizimning tarkibiy qismi sifatida kompleks baholash zarurligini tasdiqlaydi.¹³

A. Aktamov bojxona auditini raqamlashtirish, risk tahlilini joriy qilish va ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash bojxona to'lovlarining to'liq undirilishiga ijobiy ta'sir etishini asoslaydi. Muallif bojxona auditini samaradorligi oshishi budjet tushumlarini ko'paytirish bilan birga iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashini qayd etadi.¹⁴ O'zbekistonda chop etilgan boshqa tadqiqotlarda bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi yillar kesimida ortib borayotgani, bojxona yig'implari esa jami bojxona tushumlarining nisbatan kichik qismini tashkil etishi ko'rsatilgan. Mazkur ishlar bojxona tushumlarining dinamikasi tashqi savdo aylanmasi, valyuta kursi, import tarkibi, berilgan imtiyozlar va nazorat mexanizmlariga bog'liq ekanini ta'kidlaydi.¹⁵

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirish natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, xorijiy olimlar ko'proq bojxona ma'muriyatchiligining institutsional sifati, risklarni boshqarish, raqamlashtirish va savdoni yengillashtirish masalalariga e'tibor qaratgan. MDH davlatlari olimlari bojxona to'lovlarining fiskal va moliyaviy xavfsizlikdagi o'rnini, tarif stavkalari hamda tashqi savdo kon'yunkturasining budjet daromadlariga ta'sirini chuqurroq tadqiq etgan. O'zbekistonlik olimlar esa milliy bojxona ma'muriyatchiligi, davlat budjeti daromadlari dinamikasi, bojxona auditini va raqamli nazorat mexanizmlarining amaliy natijalarini o'rgangan.

7 Pérez Azcárraga, A. A., Matsudaira, T., Montagnat-Rentier, G., & Clark-Suzuki, J. (2022). Customs Matters: Strengthening Customs Administration in a Changing World. Washington, DC: International Monetary Fund.

8 Каранец С. М. (2019). Место таможенных платежей в формировании доходной части федерального бюджета. Научная статья.

9 Панкова С. В. (2020). Анализ таможенных платежей как объекта экономической деятельности таможенных органов: современные реалии в условиях теневой экономики. Научная статья.

10 Булычева К. А. (2019). Таможенные пошлины как фактор обеспечения финансовой безопасности Российской Федерации. Научная статья

11 Завьялова Е. О. (2025). Подходы к оценке бюджетного потенциала эффектов контроля таможенных платежей. Региональные проблемы преобразования экономики, №3 (173).

12 Suyunov, A., & Turayev, N. (2023). Bojxona ma'murchiligi nazariyasi va amaliyoti. O'quv-uslubiy nashr

13 Sheraliev, N. J. (2025). Islohotlarning zamonaviy sharoitlarida davlat budjeti daromadlarini shakllanish tendensiyalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 13(1). DOI: 10.55439/EIT/vol13_iss1/646.

14 Aktamov, A. (2025). Bojxona auditini raqamlashtirish va risk tahlilining fiskal samaradorlikka ta'siri. Muhandislik va iqtisodiyot ilmiy jurnali

15 Bojxona yig'implarining undirilishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning davlat budjetidagi o'rni. (2026). Ilmiy maqola, №4(2).



Muallif fikricha, mavjud tadqiqotlarda bojxona to'lovlarining fiskal ahamiyati ko'pincha alohida ko'rsatkichlar yoki ma'lum davrdagi tushumlar dinamikasi asosida baholangan. Biroq bojxona to'lovlari hajmiga tashqi savdo aylanmasi, import tarkibi, valyuta kursi, tarif stavkalari, bojxona imtiyozlari, bojxona qiymati, risklarni boshqarish va raqamlashtirish darajasining birgalikdagi ta'siri yetarlicha kompleks tahlil qilinmagan. Shu munosabat bilan maqolada bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi fiskal ahamiyatini baholashda uch yo'nalishli yondashuv taklif etiladi: birinchidan, bojxona tushumlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi va o'sish sur'atlarini aniqlash; ikkinchidan, tushumlarga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy va institutsional omillarni baholash; uchinchidan, raqamli bojxona ma'muriyatchiligi, post-bojxona audit va risklarni boshqarish tizimining fiskal samaradorligini o'lchash. Mazkur yondashuv bojxona to'lovlari faqat daromad manbai sifatida emas, balki tashqi savdo siyosati, iqtisodiy xavfsizlik va biznes muhitiga ta'sir qiluvchi kompleks fiskal instrument sifatida baholash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda oliy ta'lim tizimida strategik boshqaruv samaradorligini baholash uchun tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, statistik va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar o'rganilib, ularning natijalari umumlashtirildi. Amaliy jihatdan oliy ta'lim muassasalarida mavjud boshqaruv tizimlari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekistonda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bojxona to'lovlari muhim fiskal manbalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xavflarni boshqarish tizimini rivojlantirish hamda post-bojxona auditini kengaytirish natijasida bojxona organlari faoliyati samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Natijada bojxona to'lovlari undirish sifati yaxshilanib, davlat budjetiga tushumlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda (1-jadval).

1-jadval
O'zbekistonda bojxona to'lovlari tushumlari dinamikasi (2020–2025)¹⁶

Yillar	Bojxona to'lovlari, trln so'm	O'sish sur'ati, %	Mutlaq o'sish, trln so'm
2020	24,7	100	–
2021	31,6	127,9	6,9
2022	41,2	130,4	9,6
2023	53,8	130,6	12,6
2024	63,1	117,3	9,3
2025	74,9	118,7	11,8

O'zbekistonda bojxona to'lovlari davlat budjeti daromadlarining muhim fiskal manbalaridan biri ekanligi tasdiqlanadi. 2020–2025-yillar davomida bojxona to'lovlari hajmi 24,7 trln so'mdan 74,9 trln so'mga yetib, qariyb 3 baravar oshgan. Eng yuqori o'sish sur'ati 2022–2023-yillarda kuzatilgan bo'lib, bu davrda tashqi savdo aylanmasining kengayishi, bojxona nazoratining raqamlashtirilishi, xavflarni boshqarish tizimining takomillashtirilishi hamda elektron deklaratsiyalashning keng joriy etilishi muhim omil bo'ldi. 2024–2025-yillarda ham ijobiy o'sish sur'ati saqlanib qolgan bo'lib, bojxona ma'muriyatchiligidagi institutsional islohotlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida davlat budjetiga tushumlar izchil oshib borgan. 2025-yilning birinchi yarmidayoq bojxona organlari tomonidan 34 trln so'm bojxona tushumlari ta'minlangani yil yakunlari bo'yicha yuqori fiskal natijalarga erishilganini ko'rsatadi (1-rasm).

¹⁶ Manba: O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. 2025-yilning birinchi yarmida bojxona tushumlari 34 trln so'mni tashkil etgani va yil davomida yuqori tushum dinamikasi kuzatilgani rasmiy ma'lumotlarda qayd etilgan.



1-rasm. Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari dinamikasi (2020–2025-yillar)


Bojxona to'lovlari fiskal barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynayotganini hamda bojxona ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar davlat budjeti daromadlarining barqaror o'sishiga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Muallif fikricha, bojxona to'lovlari hajmining izchil ortib borishi nafaqat tashqi savdo hajmining kengayishi, balki bojxona ma'muriyatchiligini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida isloh qilish natijasidir. Kelgusida sun'iy intellekt, Big Data texnologiyalari va real vaqt rejimida risklarni boshqarish tizimlarini keng joriy etish bojxona to'lovlarini undirish samaradorligini yanada oshirish hamda davlat budjeti daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval
Bojxona to'lovlari tushumlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar¹⁷

№	Komponentlar	Ahamiyat darajasi (%)	Amalga oshirish darajasi (%)
1	Strategik rejalashtirish	90	65
2	Monitoring va baholash	85	60
3	Raqamlashtirish	95	70
4	Kadrlar salohiyati	88	62
5	Innovatsion boshqaruv	92	68

Bojxona to'lovlari tushumlari birgina tashqi savdo hajmiga emas, balki iqtisodiy, institutsional va ma'muriy omillarning o'zaro ta'siriga bog'liqligini ko'rsatadi. Tashqi savdo aylanmasi, import tarkibi va bojxona qiymatini to'g'ri aniqlash fiskal tushumlar hajmiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Risklarni boshqarish, raqamlashtirish va post-bojxona auditi esa bojxona nazoratining aniqligi hamda qo'shimcha tushumlarni aniqlash imkoniyatini oshiradi. Bojxona imtiyozlari qisqa muddatda davlat budjeti daromadlarini kamaytirishi mumkin, biroq ular maqsadli va samarali qo'llanilganda investitsiya faolligi, ishlab chiqarish va eksport salohiyatining kengayishiga xizmat qiladi. Valyuta kursining o'zgarishi hamda tarif stavkalari esa bojxona tushumlariga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularning fiskal natijasini baholashda import hajmi, narxlar dinamikasi va tashqi savdo ishtirokchilarining xatti-harakatlari birgalikda hisobga olinishi lozim (2-rasm).

¹⁷ Manba: WTOning Savdoni yengillashtirish to'g'risidagi bitimi, WCOning risklarni boshqarish bo'yicha metodik hujjatlari, IMFning bojxona ma'muriyatchiligiga oid tadqiqotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. Bojxona to'lovlari tushumlariga ta'sir etuvchi asosiy omillarning fiskal ahamiyati

Muallif fikricha, bojxona to'lovlari tushumlarini barqaror oshirish uchun tarif stavkalarini ko'tarishdan ko'ra, bojxona qiymatini nazorat qilish, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash, sun'iy intellekt asosida risklarni aniqlash va post-bojxona auditini kuchaytirish samaraliroq hisoblanadi. Mazkur choralar fiskal tushumlarni ko'paytirish bilan birga, qonuniy tashqi savdo operatsiyalarini tezlashtirishga ham imkon beradi (3-jadval).

3-jadval
Bojxona ma'muriyatchiligi islohotlarining 2020 va 2025-yillardagi natijalari¹⁸


Baholash yo'nalishi	2020-yildagi holat	2025-yildagi natija va yangi yondashuv	Fiskal samarasi
Bojxona boshqaruvi	Bojxona jarayonlarini bosqichma-bosqich isloh qilish konsepsiyasi amalga kiritilgan	Shaffoflik va ishonchlilikka asoslangan yangi boshqaruv tizimi belgilangan	To'lovlarni undirish va nazorat qilish samaradorligi oshadi
Elektron rasmiylashtirish	Elektron deklaratsiyalash va axborot tizimlarini kengaytirish boshlangan	Deklaratsiyalarni inson omilisiz rasmiylashtirish ulushini 2026-yilgacha ikki baravarga oshirish vazifasi belgilangan	Inson omili va korrupsiya xavfi kamayadi
Xavflarni boshqarish	Xavf darajasiga asoslangan nazorat mexanizmlari shakllantirilgan	Sun'iy intellekt asosida xavflarni boshqarish tizimini rivojlantirish choralari tasdiqlangan	Yuqori xavfli operatsiyalarni aniqlash va qo'shimcha tushumlarni undirish imkoniyati kengayadi
Bojxona ko'rigi	Jismoniy nazorat va hujjatli tekshiruvlarning ulushi nisbatan yuqori bo'lgan	Bojxona ko'rigi ulushini 2028-yilgacha 21 foizdan 15 foizga tushirish maqsadi belgilangan	Past xavfli yuklar tezkor rasmiylashtirilib, nazorat xarajatlari kamayadi
Post-bojxona audit	Tovarlarni chiqarilgandan keyingi tekshiruv mexanizmlari rivojlantirilayotgan bosqichda bo'lgan	Post-bojxona auditini risk tahlili va raqamli ma'lumotlar asosida kuchaytirish ko'zda tutilgan	Kam hisoblangan bojxona to'lovlarni aniqlash imkoniyati oshadi
Idoralararo axborot almashinuvi	Ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash jarayoni boshlangan	Bojxona organlarini boshqa davlat idoralari axborot tizimlari bilan bog'lash kengaytirilgan	Tovar qiymati va kelib chiqishiga doir ma'lumotlarni tekshirish tezlashadi

18 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PF-57-son Farmoni va PQ-122-son qarori asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Baholash yo'nalishi	2020-yildagi holat	2025-yildagi natija va yangi yondashuv	Fiskal samarasi
Sun'iy intellekt va startaplar	Bojxona jarayonlarida an'anaviy dasturiy vositalar ustun bo'lgan	Sun'iy intellekt texnologiyalari va startap loyihalarini joriy etish bo'yicha alohida chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan	Xavfli deklaratsiyalarni avtomatik aniqlash sifati yaxshilanadi
Xalqaro samaradorlik	Bojxona tartib-taomillarini xalqaro standartlarga moslashtirish boshlangan	2030-yilgacha Jahon bankining LPI bojxona rasmiylashtiruv ko'rsatkichi bo'yicha kamida 55-o'ringa chiqish maqsadi belgilangan	Savdo xarajatlari kamayib, tashqi savdo va bojxona to'lovlari bazasi kengayadi

2020–2025-yillarda bojxona ma'muriyatchiligi oddiy elektronlashtirish bosqichidan ma'lumotlarga, xavflarni boshqarishga va sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tayotganini ko'rsatadi. 2020-yilda bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, elektron deklaratsiyalashni kengaytirish va xalqaro standartlarni joriy etish asosiy vazifalar sifatida belgilangan bo'lsa, 2025-yildagi islohotlarda inson omilisiz rasmiylashtirish, sun'iy intellekt asosida risklarni aniqlash, bojxona ko'rigi ulushini kamaytirish va xalqaro logistika reytinglaridagi o'rinni yaxshilashga ustuvor ahamiyat berilgan. Bu bojxona nazoratini barcha yuklarga bir xil tatbiq etishdan yuqori xavfli operatsiyalarga yo'naltirilgan selektiv nazoratga o'tishni anglatadi. Natijada qonuniy tashqi savdo ishtirokchilari uchun rasmiylashtirish vaqti hamda xarajatlari qisqaradi, bojxona organlarining resurslari esa bojxona qiymatini pasaytirish, noto'g'ri tarif tasnifi va imtiyozlardan asossiz foydalanish kabi yuqori fiskal xavfga ega holatlarni aniqlashga yo'naltiriladi (3-rasm).



3-rasm. O'zbekistonda bojxona ma'muriyatchiligi islohotlarining 2020–2025-yillardagi rivojlanish yo'nalishlari¹⁹

Muallif fikricha, 2025-yildagi islohotlarning fiskal natijasini faqat bojxona to'lovlari hajmi bilan emas, balki qo'shimcha hisoblangan to'lovlar, post-bojxona auditi samaradorligi, inson omilisiz rasmiylashtirilgan deklaratsiyalar ulushi, bojxona ko'rigi natijadorligi va bitta deklaratsiyani rasmiylashtirish xarajatlari orqali baholash maqsadga muvofiq. Bunday indikatorlar bojxona ma'muriyatchiligidagi o'zgarishlarning davlat budjeti daromadlariga real ta'sirini aniqroq ifodalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda bojxona to'lovlari davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muhim fiskal manbalardan biri ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2020–2025-yillar davomida bojxona to'lovlari tushumlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu, avvalo, tashqi savdo hajmining kengayishi,

19 Rasm manbasi: PF–57 va PQ–122-son normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda risklarni boshqarish tizimining rivojlanishi bilan izohlanadi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar bojxona nazoratining samaradorligini oshirish, rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish va davlat budjetiga qo'shimcha tushumlarni ta'minlashda muhim natijalar bermoqda.

Adabiyotlar tahlili xorijiy va MDH davlatlari olimlari bojxona to'lovlarining fiskal ahamiyatini asosan bojxona ma'muriyatchiligi sifati, risklarni boshqarish, bojxona qiymatini aniqlash va post-bojxona auditini rivojlantirish bilan bog'laganini ko'rsatdi. O'zbekistonlik olimlar esa milliy bojxona tizimini isloh qilish, davlat budjeti daromadlarini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Biroq bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy va institutsional omillarni kompleks baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hali ham yetarli emas.

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Bojxona to'lovlarini prognozlashning zamonaviy iqtisodiy-matematik modelini ishlab chiqish orqali davlat budjeti daromadlarini rejalashtirish aniqligini oshirish.

Risklarni boshqarish tizimida sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, yuqori xavfli tashqi savdo operatsiyalarini avtomatik aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish.

Post-bojxona auditini takomillashtirish hamda bojxona organlarining soliq, statistika va boshqa davlat axborot tizimlari bilan integratsiyasini kuchaytirish orqali bojxona to'lovlarining to'liq undirilishini ta'minlash.

Bojxona imtiyozlarining fiskal samaradorligini muntazam monitoring qilish va ularning davlat budjeti daromadlariga ta'sirini baholashning yagona metodikasini joriy etish.

Elektron bojxona xizmatlarini yanada rivojlantirish, inson omilini kamaytirish va barcha bojxona jarayonlarini to'liq raqamlashtirish orqali ma'muriy xarajatlarni qisqartirish hamda tadbirkorlar uchun qulay biznes muhitini yaratish.

Jahon Bojxona Tashkiloti (WCO) va Jahon savdo tashkiloti (WTO) standartlarini milliy amaliyotga to'liq implementatsiya qilish, bojxona qiymatini aniqlash, risklarni boshqarish va savdoni yengillashtirish mexanizmlarini xalqaro talablar asosida takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, bojxona to'lovlari nafaqat davlat budjeti daromadlarini shakllantiruvchi muhim fiskal manba, balki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va investitsion muhitni yaxshilashning muhim instrumenti hisoblanadi. Bojxona ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish hamda risklarga asoslangan nazorat tizimini rivojlantirish davlat budjeti daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash, bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirish va mamlakatning xalqaro savdo tizimidagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 2016-yil 20-yanvardagi O'RQ-400-son Qonun bilan tasdiqlangan // URL: <https://lex.uz/docs/2876354>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-122-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/5998615>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-57-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/7451997>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/7452043>
5. World Trade Organization. (1994). Agreement on Implementation of Article VII of the General Agreement on Tariffs and Trade 1994. Geneva: WTO.
6. World Trade Organization. (2017). Trade Facilitation Agreement. Geneva: WTO.
7. Rosenow, S., & O'Shea, B. (2010). A Handbook on the WTO Customs Valuation Agreement. Cambridge: Cambridge University Press; Geneva: World Trade Organization.
8. World Customs Organization. Customs Risk Management Compendium. Brussels: WCO.
9. World Customs Organization. Guidelines for Post-Clearance Audit. Brussels: WCO.
10. Pérez Azcárraga, A. A., Matsudaira, T., Montagnat-Rentier, G., & Clark-Suzuki, J. (2022). Customs Matters: Strengthening Customs Administration in a Changing World. Washington, D.C.: International Monetary Fund.



11. Montagnat-Rentier, G. (2019). Revenue Administration: Short-Term Measures to Increase Customs Revenue in Low-Income and Fragile Countries. IMF Technical Notes and Manuals, No. 19/01. Washington, D.C.: International Monetary Fund.
12. Cantens, T., Ireland, R., & Raballand, G. (Eds.). (2013). Reform by Numbers: Measurement Applied to Customs and Tax Administrations in Developing Countries. Washington, D.C.: World Bank.
13. Arvanitis, Y. (2023). Customs Reform in Developing Countries: Time for a Rethink? Washington, D.C.: World Bank.
14. United Nations Conference on Trade and Development. (2024). ASYCUDA Report 2024: Innovation for a Changing World. Geneva: UNCTAD.
15. United Nations Conference on Trade and Development. (2025). ASYCUDA Report 2025: The New Generation of ASYCUDA for Efficient, Secure and Sustainable Trade. Geneva: UNCTAD.
16. Каранец С. М. Место таможенных платежей в формировании доходной части федерального бюджета // Научные труды российских исследователей. – 2019.
17. Панкова С. В. Анализ таможенных платежей как объекта экономической деятельности таможенных органов в условиях теневой экономики // Экономический анализ: теория и практика. – 2020.
18. Булычева К. А. Таможенные пошлины как фактор обеспечения финансовой безопасности государства // Финансовая экономика. – 2019.
19. Завьялова Е. О. Подходы к оценке бюджетного потенциала эффектов контроля таможенных платежей // Региональные проблемы преобразования экономики. – 2025. – № 3.
20. Suyunov A., Turayev N. Bojxona ma'murchiligi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2023.
21. Sheraliev N. J. Islohotlarning zamonaviy sharoitlarida davlat budjeti daromadlarini shakllantirish tendensiyalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2025. – 13-jild, 1-son.
22. Aktamov A. Bojxona auditini raqamlashtirish va risk tahlilining fiskal samaradorlikka ta'siri // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2025.
23. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi. 2020–2025-yillardagi bojxona to'lovlari, tashqi savdo va bojxona ma'muriyatchiligiga oid rasmiy statistik ma'lumotlar.
24. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi va davlat moliyasi bo'yicha statistik ma'lumotlar.
25. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat budjeti ijrosi va budjet daromadlari bo'yicha rasmiy hisobotlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>